



O'ZBEKISTONNING IQTISODIY SALOHIYATI VA UNDA SAMARALI FOYDALANISH MUAMMOLARI

Jo'raqulova Nasiba Davlatbek qizi

Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi

2-bosqich talabasi Toshkent Moliya instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10516241>

Mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati haqidagi muammolar va u haqidagi o'rganishlar davlatimiz oldida turgan asosiy masala va vazifa hisoblanadi. Chunki, davlatning iqtisodiyoti qanchalik yuqori darajada bo'lsa, mamlakatdagi aholining turmush darajasi, mamlakatning jahondagi o'rnini va unga e'tibor shuncha yuqori bo'ladi. Biz bu kabi iqtisodiy tahlillarni yurtimiz olimlarining fikrlari orqali bilib olishimiz yanada osonlashadi. Misol uchun, A.O'lmasov va A.Vahobovlarning "Iqtisodiyot nazariyasi" nomli darslik kitoblarida mamlakat iqtisodiyoti haqida juda aniq va ravshan fikrlari orqali ushbu tushunchani tushuntirib berishgan: "Iqtisodiyot kishilarning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan noz-ne'matlarni yaratadi, ularni kishilar iste'moliga yetkazib beradi. Demak, u hayot kechirishni kafolatlaydi. Qayerda iqtisodiyot rivoj topgan bo'lsa, shu yerda kishilar rohat-farog'atda yashaydi va aksincha, qayerda iqtisodiyot qoloq bolsa, shu yerda kishilarning qorni to'ymaydi, usti but bolmaydi, ular doimiy muhtojlikda zo'rma-zo'raki kun o'tkazadilar". Har bir mamlakatning iqtisodiy salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi, chunki iqtisodiyot yuksak bo'lgan mamlakatda rivojlanish ham yuqori bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yurtimiz O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati ham yildan yilga o'sib bormoqda. Mamlakatimiz 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi doirasida ko'plab yutuqlarga erishdi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxsizligini ta'minlash uchun turli xil choralar ko'rildi, shuningdek, moliya tizimini liberallashtirildi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirish bo'yicha turli xil izlanishlar olib borildi va milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdoga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, mamlakatimizda 2017-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, biznes yuritish bo'yicha xorijiy valyutalar konvertatsiyasi yetishmasligi, yuqori import bojlari, soliq stavkalari kamchiliklarini bartaraf etilmoqda va bu orqali iqtisodiy salohiyatni isloh qilishga katta ko'mak bermoqda. O'zbekistonning geografik joylashuvi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ham kuchli, ham zaif jihatlarni oldindan belgilab qo'ygan. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar bilan



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

chegaradosh ekanligi uning mintaqa bozorlaridagi ahamiyatini oshiradi. Hudud bo'ylab o'tgan Buyuk ipak yo'li yurtimizga katta manfaat keltirgan. Ikkinchi tomondan, mamlakatimiz Yevropa va Osiyo bozorlariga bir necha davlatlar orqaligina chiqish imkoniyatiga ega. Arzon dengiz yo'liga chiqish qiyin. Shuning uchun ham hukumatimiz temir yo'l va avtomobil xalqaro koridorlarini tashkil qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan xalqaro mintaqaviy loyihalarda faol ishtirok etmoqda. Natijada, ichki va tashqi yo'lovchi va yuk tashish aylanmalari yildan-yilga oshib boryapti.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan qarama-qarshiliklarning kuchayib borishi va jahon bozorida vaziyatning tez o'zgarayotgani dunyoning ko'plab mamlakatlarida investitsion faollikning susayishi real iqtisodiyotda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati susayishi ro'y berib, jahon bozorida xarid talabining kamayishi davom etmoqda, ishsizlik darajasi yuqoriligicha qolmoqda, ijtimoiy keskinlik kuchaymoqda. Bundan tashqari mamlakatimizdagi ayrim sohalar, tarmoqlar va kompaniyalarda eksport hajmi kamayib, import hajmi oshib ketishi, ko'plab kapital mablag'lar sarflanishiga qaramay ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligining sust o'sishi fantexnika taraqqiyoti yuz berib, yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishiga qaramay ketgan xarajatlar va mahsulot tannarxi pasayish o'rniga aksincha, oshishi holati yuz berishi kabi noxush holatlar sodir bo'lib turibdi. Bu holatlar mamlakatimiz oldida turgan keng ko'lamlı dasturiy maqsad va vazifalar – islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, tarkibiy o'zgartirish, xususiy mulk, xususiy tadbirkorlikni kuchaytirish, iqtisodiy rivojlanish yo'lida g'ov bo'lib turgan barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha qisqa va uzoq muddatga belgilangan strategik vazifalar va muammolarni hal etish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishni talab qiladi.

Hozirgi keskinlik bilan rivojlanib borayotgan dunyoda yetakchi davlatlardan biri bo'lish uchun albatta mamlakatning iqtisodiy salohiyati rivojlanayotgan bo'lishi kerak. Shu maqsadda, mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yurtimiz iqtisodiyotiga ham alohida e'tibor qaratishni ta'kidlab o'tganlar. Shuningdek, bu sohani rivojlantirish mamlakatimizning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida asosiy maqsadlardan biri sifatida o'z aksini topdi: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan





sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish. ¹

Bugungi kunda innovatsion taraqqiyotga erishish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, cheklangan resurslardan maksimal darajada oqilona foydalanish masalalari nafakat milliy iqtisodiyotlar, balki butun dunyo hamjamiyati oldida amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalardan sanaladi. Chunki, hozirgi davr iqtisodiyoti muayyan bir tizim sifatida nafaqat iqtisodiy o'sish, texnik mukammallik hamda raqobatbardoshlik tamoyillari asosida shakllanishi, balki har bir inson yashash sharoitini yaxshilashi hamda kelajak avlodlar uchun qulay iqtisodiy sharoit yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va rivojlantirish, iqtisodiy salohiyatni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish, tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligi va faoliyati samaradorligini kuchaytirish asosida aholi turmush darajasini oshirish davlatning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Mamlakatimiz prezidenti ta'kidlaganidek, "oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi " ². Albatta bunday islohatlarni amalga oshirishda iqtisodiy qarashlarni o'rni benixoya kattadir. Bugungi kunda rivojlanishning ekstensiv omillari deyarli tugamaydi va ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish asosida, ya'ni ilmiy yutuqlardan har tomonlama foydalanish asosida milliy iqtisodiyotni samaradorligini oshirish zarur. Bu esa mamlakatimizning raqobatbardoshligi va uning jahon iqtisodiyotidagi muvaffaqiyatli amalga oshirishga bog'liq.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063> 2022-2026-yillar uchun mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi № PQ – 4477 sonli "2019 – 2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi (24.01.2020) Xalq so'zi gazetasi, 2020 yil 25 yanvar

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063> 2022-2026-yillar uchun mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi (24.01.2020) Xalq so'zi gazetasi, 2020 yil 25 yanvar



SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



4. Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari. D.Q. Ahmedov, G.E. Zaxidov, B.D. Hajiyeu, K.K. Mambetjanov. Darslik-T.:2018
5. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. A. O 'lmasov, A. Vahobov. Toshkent."Iqtisod-moliya"-2014
6. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni. T. Jo'rayev. Toshkent-2013
7. "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2022-yil 17-avgust, 166-son
8. <http://www.stat.uz> davlat statistika qo'mitasi
9. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/mamlakat_iqtisodieti_usishi_uchun_qanday_chora-tadbirlar_kuriladi
10. <https://www.spot.uz/oz/2022/04/19/risks/>

